
Farg'ona shahar hokimi "Eko shahar" va "Yangi O'zbekiston bog'i"da amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdi

Eko shaharda 204 ta 21 660 xonadonli (85,5 ming aholi) ko'p qavatli uy-joylar qurilishi belgilangan. Yangi massivda 10 ta bog'cha, 6 ta umumta'lim maktabi, poliklinika, masjid hamda sog'lomlashtirish majmuasi bunyod etiladi. 15 ta ma'muriy idoralar qad rostlaydi, "Kichik sanoat zonasi"da esa 17 ta lotlar ajratiladi. Shahar hokimi qirilish sohasida olib borilayotgan ishlarga alohida e'tibor qaratdi.

"Yangi O'zbekiston bog'i" qurilishi ham jadallik bilan olib borilmoqda. Mas'ullar ishtirokida mazkur bog'dagi ishlar o'rganildi. Daraxtlarni parvarishlash, ko'l va kichik kanalning qurilish ishlarini sifatli olib borish bo'yicha ham kerakli tavsiyalar berildi.

2022-07-04 11:34:31